


**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ
МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ МУҲАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ**



**“Қишлоқ ва сув хўжалигида давлат-хусусий шерикчилигини
ривожлантиришнинг устувор йўналишлари
ва амалга ошириш механизмлари”**

мавзусидаги республика илмий-амалий анжуманидаги

МАҶОЛАЛАР ТЎПЛАМИ

Тошкент - 2019 йил, 1-2 май

	Ш.Муродов, Г.Пирназарова студенты	государственно-частного партнерства для отраслей сельского хозяйства.	
17	Ж.Махмудов – ТИҚХММИ талабаси	Кишлоқ хўжалигида малакали кадрлар тайёрлаш	188
18	N.Akramova – TIQXMMI assistenti, M.Usarova – TIQXMMI talabasi	O’zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida davlat-xususiy sherikligidan foydalanishni tashkil etish	191
19	Ш.Ходжимухамедова – доцент ТИИИМСХ Д.Нарзуллаева – студентка ТИИИМСХ	Местный и зарубежный опыт государственно-частного партнерства в сфере образования страны	192
20	Н.Акрамова – ассистент ТИИИМСХ, К.Мамедова – студентка ТИИИМСХ	Подготовка высококвалифицированных кадров в сфере государственно-частного партнерства для сельского и водного хозяйства	195
21	Н.Рахшона – Младший научный сотрудник, Институт прогнозирования и макроэкономических исследований при Министерство Экономики и Промышленности	Анализ системы образования Сырдарьинской области	197
22	Ж.Кучаров – Кишлоқ хўжалиги иқтисодиёти ИТИ таянч доктаранти	Кишлоқ хўжалигида давлат-хусусий шериклиги асосида малакали кадрлар тайёрлаш масалалари	200
23	Ш.Файзуллаев, А.Эшбоев Тошкент давлат аграр университети ўқитувчилари	Иқтисодиётимизнинг таълим соҳасида давлат-хусусий шериклигини ривожлантиришнинг айrim назарий масалалари	202
24	D.Yulchiyev, M.Xudoyberganova – TIQXMMI assistentlari, A.Turdiyev – TIQXMMI talabasi	O’zbekiston Respublikasidagi qishloq hududlarini rivojlantirish maqsadida elektr energiyasi, tozalangan ichimlik suvi va tomchilatib sug’orishning innovatsion shaklini yoritib beruvchi loyiha	206
25	A.Botirov – TIQXMMI assistenti	Quyosh energiyasidan foydalanishning samaradoligi	209
26	Ю.Б.Собиров-доцент, ассистентлар А.У.Джалилов, А.И.Пардаев, магистрант А.М.Мустафоқулов	Использование возобновляемых видов энергий в сельском и водном хозяйстве	211
27	G.Shadmanova, professor, S.P.Mavlonov, assistent, D.D.Tursunxo‘jayeva, talaba	Suv resurslaridan foydalanishni ekonometrik modellar orqali proqnoz qilish	216
28	Р.Р.Исакузиева – студентка ТИИИМСХ	Перспектива развития животноводческого кластера в Республике Узбекистан	219
29	Ш.Айнакулов – стар. преподавател, Ш.К.Зияева – ассистент, М.Бекназарова – студент	«Совершенствование управления сельским хозяйством на основе новых информационных технологий»	223
30	Д.Х.Кендурова ассистент, Д.Утбасова талаба, ТИҚХММИ	Фермер хўжаликлари ривожланишини инновацион ёндашуви	228
31	Х.Х.Каримова, доцент, и.ф.н, Ж.М.Бобоназаров, талаба, ТИҚХММИ	Талабаларнинг мустақил таълим олишида ахборот коммуникация технологияларни аҳамияти	231
32	Х.Х.Каримова, доцент, Г.Ахмедова, студент, ТИИИМСХ	Инновационные технологии и их роль в образовательном процессе	233

УДК: 330.115

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI PROGNOZ QILISH

Shadmanova G., professor, Tursunxo'jayeva D.D., SXBvaTE talabasi, TIQXMMI

Annotatsiya. Mazkur maqola ekonometrik modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanib, suv resurslari iqtisodiy jarayonlarini regressiya tahlilini amalga oshirishga bag'ishlangan. Suv resurslaridan foydalanishda ekologik xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida ekonometrik modellashtirish va ularni prognoz qilish ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda suv resurslariga bo'lgan talab ortayotganligi bilan birga, suvning taqchilligi ham yildan-yilga ortib bormoqda. Shuning uchun xalqaro me'yordarga asoslangan holda respublikamizda ham suvdan foydalanishda ustuvor yo'naliishlarni aniq belgilangan.

Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xavf-xatarlarni oldindan ko'ra olish maqsadida ekonometrik modellar imkoniyatlaridan foydalanib uni oldindan prognoz qilish mumkin. Buning uchun berilgan masalani statistik ma'lumotlar orqali ekonometrik modeli tuziladi[1,2].

Ekologik nazoratni oxirgi 50 yillik kuzatish ma'lumotlari e'lon qilinganda sanoat markazining jamoasi juda ham qattiq havotirga tushdi. Antropogen faktorlarni ta'siri ostida (industrial o'sish, urbanizatsiya, tabiiy muhitni ifloslanishi) daryodagi suv sathi yildan yilga kamayib bormoqda. Quyidagi jadvalda daryodagi yil bo'yicha o'rtacha suv sathi va shahar aholisi yil mobaynida suv resurslari iste'mol qilish hajmi o'rtasidagi bog'lanishlar tasvirlangan.

Ko'rsatkichlar	Kuzatish natijalari										
	Yillar	1970	1975	1980	1985	1990	1995	2000	2005	2010	2015
Suv iste'moli (m ³ ming/yil)	1200	1900	2500	4500	7800	12400	24000	32000	39000	50000	
Suv sathi	315	302	290	284	271	258	237	211	202	174	

Bu daryo qirg'oqlari kishilarning dam olish joyi ekanligini nazarga olib, vujudga kelgan havfli tendensiyalar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aniqlashni olimlarga vazifa qilib berildi [3].

Daryo chuqurligi va yillar o'rtasidagi bog'lanishni hamda daryo chuqurligi va bir yil davomida suv iste'moli o'rtasidagi bog'lanishni aniqlovchi regressiya modellari tuzilib, tuzilgan modellarning haqqoniyligini baholaymiz.

Mavjud xavfli tendensiyalar davom ettirilsa, nechanchi yilga borib, daryo qurib qolishi mumkinligini prognoz qilamiz.


Ma'lumotlarni solishtirib, ular o'rtasida chiziqli bog'liqlik mavjudligini ko'rishimiz va bu bog'lanishni chiziqli tenglama orqali ifodalash mumkin deb taxmin qilinadi. Grafik maydonini yaratish uchun Ma'lumotlar MS Excelga joylashtiriladi(1-rasm):

Yillar o'tishi bilan suv sathining o'zgarishi o'rtasida bog'liqliknini aks ettiruvchi grafikni yaratish uchun birinchi navbatda suv sathini o'zgarish qiymatlari, keyin esa yillarni belgilanadi.

Natijada quyidagi grafik hosil bo'ladi (2-rasm):

Yillar	A		B		C	
		Suv iste'moll		Suv sathi		
1970	1200		1200		315	
1975	1900		1900		302	
1980	2500		2500		290	
1985	4500		4500		284	
1990	7800		7800		271	
1995	12400		12400		258	
2000	24000		24000		237	
2005	32000		32000		211	
2010	39000		39000		202	
2015	50000		50000		174	


1-rasm.



2-rasm


Grafik tahlili to‘g‘ri chiziqli bog‘lanishga yaqinlikni ko‘rsatadi, chunki nuqtalar deyarli to‘g‘ri chiziqda joylashgan.

Yillar va suv sathi qiymatlari o‘rtasidagi bog‘lanishning tenglamasini va approksimatsiya ishonchligini qiymatini grafik ustida akslantirish uchun grafik trendi hosil qilinadi (4-rasm):



3-Rasm

Qilingan amallar natijasida grafikdagi nuqtalar ustida o‘zgarishlarni akslantiruvchi chiziqli funksiya formulasi $y = -3,0521x + 6335,8$ va bu funksiyaning ishonchlik qiymati $R^2 = 0,972$ o‘rnataladi (4-rasm):



4-rasm

Qo‘yilgan masalaning keying bosqichiga (nechanchi yilda daryo qurib qoladi) javob olish uchun regressiya modelining koeffitsientlarini a va b , t - yillar deb, y – suv sathini qiymati formulasini kiritamiz (5-rasm):